

О'RTA OSIYOGA ROSSIYA AHOLISINI KO'CHIRISH SIYOSATI: MAQSAD VA OQIBATLAR

IIV Namangan akademik litseyi

Tarix fani o'qituvchisi

Muhiddinov Nasiba Odiljon qizi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'rta Osiyoga rus aholisini ko'chirish siyosati tahlil qilinadi. Siyosatning asosiy maqsadlari – mintaqani mustamlakalashtirish, iqtisodiy va agrar islohotlar bahonasida rus dehqonlarini joylashtirish orqali mahalliy aholining yerlaridan siqib chiqarish, siyosiy nazoratni kuchaytirish kabi omillar bilan bog'liq edi. Sovet davrida bu siyosat yanada murakkablashib, ixtiyoriy va majburiy ko'chirishlar, deportatsiyalar orqali davom ettirildi. Maqolada ushbu jarayonlarning demografik tarkibga, ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatga va madaniy muhitga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar:

Rossiya imperiyasi, O'rta Osiyo, ko'chirish siyosati, mustamlakachilik, agrar siyosat, sovet davri, demografiya, ruslashtirish, deportatsiya.

O'rta Osiyo hududi, ya'ni hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston tarixan ko'p millatli bo'lgan. Ammo bu ko'p millatlilik ko'p jihatdan XX asrda, xususan Sovet Ittifoqi davrida, ayniqsa rusiyzabon aholining ommaviy ko'chib kelishi orqali shakllangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olish bilan birga mintaqada o'z siyosiy, iqtisodiy va madaniy ustunligini mustahkamlash choralarini ko'ra boshladi. Bu

siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri Rossiya aholisi, ayniqsa rus dehqonlarini mintaqaga ko'chirish orqali tub aholi ustidan nazoratni kuchaytirish edi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olganidan so'ng, mintaqada siyosiy, iqtisodiy va madaniy ustunlikni mustahkamlashga intildi. Bunda Rossiyadan kelgan aholini mintaqaga ko'chirish muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Rusiyzabon aholining O'rta Osiyoga kirib kelishi XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni Rossiya imperiyasining bu hududlarni bosib olish davridan boshlanadi. 1865-yilda Toshkent, 1868-yilda Buxoro, 1873-yilda Xiva va boshqa hududlar bosib olingach, Rossiya hukumati bu yerlarga rus amaldorlari, harbiylar va muhandislarni yubora boshladi. Ammo aholining keng ko'lamda ko'chirilishi Sovet davrida, ayniqsa Iosif Stalin boshqaruvi davrida yanada kuchaydi.

Rusiyzabon aholining ko'plab shaharlarda, ayniqsa poytaxtlarda, yirik ijtimoiy, madaniy va siyosiy rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Toshkent, Almati, Frunze (hozirgi Bishkek) kabi shaharlarda rusiyzabonlar yuqori lavozimlarda ishlagan, oliy ta'lim, madaniyat va ilm-fan sohalarida ustunlik qilgan. Ko'plab mahalliy aholi farzandlari rus maktablarida o'qitildi, bu esa ikki tillilikni rivojlantirdi. Shu bilan birga, bu holat mahalliy tillarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan deb baholanadi.

O'rta Osiyoga Rossiya aholisini ko'chirish siyosatining sabablari:

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olganidan so'ng, mintaqada siyosiy, iqtisodiy va madaniy ustunlikni mustahkamlashga intildi. Bunda Rossiyadan kelgan aholini mintaqaga ko'chirish muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Quyidagi omillar bu siyosatga asos bo'lgan:

Birinchidan, siyosiy nazoratni kuchaytirish: O'rta Osiyo xalqlari mustamlakachilik siyosatiga qarshi turli ko'rinishlarda qarshilik ko'rsatgan. Rossiya hukumati esa o'z fuqarolarini bu yerlarga ko'chirib, ular orqali ishonchli siyosiy va harbiy tayanch yaratishni ko'zlagan.

Ikkinchidan, iqtisodiy manfaatdorlik: Rossiyaning markaziy viloyatlarida yer tanqisligi keskin bo'lgan. O'rta Osiyoning serhosil vodiylari – Farg'ona, Sirdaryo, Zarafshon vodiylariga dehqonlarni joylashtirish orqali bu muammo hal qilinmoqchi bo'ldi.

Uchinchidan, mustamlakachilik siyosatini chuqurlashtirish: Rossiya O'rta Osiyoni o'zining mustamlakasi sifatida ko'rib, aholining tarkibini o'zgartirish orqali mahalliy xalqlarning siyosiy va madaniy mustaqilligini buzishga harakat qilgan.

Ko'chirish siyosati mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu siyosatning asosiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

Ruslar va boshqa slavyan xalqlari mintaqada ko'paydi. Ba'zi shaharlarda ruslar asosiy etnik guruhga aylangan. Bu esa milliy muvozanatning buzilishiga olib keldi. Tub aholining ko'plab yeri “davlat mulki” deb e'lon qilinib, ko'chmanchilarga ajratildi. Bu esa mahalliy aholining iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir qildi. Ta'lim, ma'muriy ish yuritish va jamiyatda rus tili va madaniyatining ustuvorligi kuchaydi. Mahalliy madaniyat, urf-odat va tillar cheklovga uchradi. Ko'chmanchilarga ko'p hollarda iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar berildi, bu esa mahalliy aholi orasida norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'ldi. Yer, ish va ijtimoiy mavqe uchun raqobat kuchaygan sari turli millat vakillari o'rtasida keskinliklar paydo bo'ldi. Bu esa mintaqaviy barqarorlikka tahdid tug'dirgan.

1870-yillardan boshlab Orenburg, Voronej, Penza kabi viloyatlardan rus dehqonlari Sirdaryo va Farg'ona vodiysiga ko'chirila boshlandi. “Davlat yerlari” deb e'lon qilingan hududlar mahalliy aholining asrlar davomida foydalanib kelgan yerlari edi. Bu esa yer tanqisligi va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Sovet Ittifoqi davrida ko'chirish siyosati yangi shakllarda davom etdi. 1930–1950-yillarda: Stalin repressiyalari tufayli ko'plab sovet fuqarolari (nemislar, koreyslar, ukrainlar) O'rta Osiyoga deportatsiya qilindi. Mahalliy aholining ko'plab vakillari boshqa hududlarga

surgun qilindi. Ishlab chiqarish va kollektiv xo‘jaliklar barpo etilishi bilan ko‘plab ishchi kuchlari mintaqaga ko‘chirildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyoga Rossiya aholisini ko‘chirish siyosati mintaqada uzoq muddatli siyosiy, ijtimoiy va madaniy iz qoldirdi. Bu jarayon mustamlakachilikning muhim qurollaridan biri sifatida xizmat qildi va keyingi siyosiy-ijtimoiy ziddiyatlarning ildiziga aylandi. Mustaqillikdan keyingi davrda bu tarixiy tajribani chuqur tahlil qilish mintaqaviy taraqqiyot strategiyalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Rossiya aholisining O‘rta Osiyoga ko‘chirilishi mustamlakachilik siyosatining muhim vositasi bo‘lgan. Bu siyosat mintaqaning tabiiy rivojlanish jarayoniga aralashib, demografik, iqtisodiy, madaniy va siyosiy muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Uning oqibatlari mustaqillik yillarida ham o‘z aksini topgan – millatlararo munosabatlar, til siyosati va madaniy mustaqillik borasidagi muammolar tarixiy ildizga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abashin S. N. Sovetskaya natsionalnaya politika v Sredney Azii. Moskva: Novoe literaturnoe obozrenie, 2007.
2. Boymirza Hayit. Turkiston Rossiya va Xitoy orasida. Toshkent: Sharq, 2000.
3. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington Press, 2006.
4. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press, 2015.
5. Pohl J. Otto. Ethnic Cleansing in the USSR, 1937–1949. Greenwood Press, 1999.
6. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: Fan, 2001.